

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**“TARMOQLAR IQTISODIYOTI”**  
**KAFEDRASI**

*Qo'lyozma huquqida*  
**UDK:338(575.1)**

**NURILLAYEVA MALIKABONU LUTFULLAYEVNA**

**KLASTER TUZILMALARINI TASHKIL ETISH VA ULARNING**  
**SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI**

**70310102-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)**  
**mutaxassisligi bo'yicha**

**magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:**  
**dots. Rajabov N.**

**Toshkent – 2023**

Magistrilil dissertatsiya ishi "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

27 -sonli bayonnoma «24» 04 2023 y.

Ilmiy rahbar:

Rajabov N.



imzo

sana

Magistr:

Nurillayeva M.




imzo

sana

Dissertatsiya ishi Iqtisodiyot fakultetida 2023 yil "23" 05

№ 1120 raqami bilan ro'yxatga olingan

**"Himoyaga ruxsat etiladi"**

"Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasii  
mudiri dots. I.Xotamov 

"8" "may" 2023 yil

Himoya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida

2023 yil "24" 05 soat "10<sup>00</sup>" da bo'ladi

## ANNOTATSIYA

Ushbu magistrlik dissertatsiyasida klaster tuzilmasining mazmun-mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishda klaster usulidan foydalanishning ahamiyati, shuningdek klaster usulidan foydalanish bo'yicha rivojlangan mamlakatlar tajribalari o'rganilgan hamda ulardan O'zbekiston sharoitida samarali foydalanish yo'llari taklif etilgan.

Bundan tashqari, mamlakatimizda klasterlarning rivojlanish bosqichlari hamda iqtisodiyotimizni yanada rivojlantirishda klaster tuzilmalarini tashkil etish va ularning samaradorligini oshirish istiqbollari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** klaster, klaster tuzilmalari, klaster yondashuvi, iqtisodiyot, sanoat klasteri, hududiy klaster, agrosanoat klasteri.

## ANNOTATION

In this master's thesis, the essence of the cluster structure, its characteristics, the importance of using the cluster method in the development of economic sectors, as well as the experiences of developed countries in using the cluster method, and ways of using them effectively in the conditions of Uzbekistan are proposed.

In addition, suggestions and recommendations have been developed on the development stages of clusters in our country and the prospects of organizing cluster structures and increasing their efficiency in the further development of our economy.

**Key words:** cluster, cluster structures, cluster approach, economy, industrial cluster, regional cluster, agro-industrial cluster.

## MUNDARIJA

Annotatsiya .....	3
Mundarija .....	5
Keltirilgan jadvallar ro'yxati .....	6
Keltirilgan rasmlar ro'yxati .....	7
Keltirilgan qisqartmalar .....	8
<b>KIRISH</b> .....	9
Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi .....	9
Tadqiqotning maqsadi va vazifalari .....	12
Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari .....	12
Tadqiqotning ob'yekti va predmeti .....	13
Tadqiqotning ilmiy yangiligi .....	13
Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi .....	13
<b>I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI</b> .....	15
1.1. Kirish .....	15
1.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi .....	15
1.3. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi .....	27
1.4. Xulosa .....	31
<b>II BOB. METODOLOGIYA</b> .....	32
2.1. Tadqiqot dizayni .....	32
2.2. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni .....	32
2.3. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar .....	32
2.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar .....	33
2.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi .....	33
2.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar .....	34
<b>III BOB. TAHLIL VA NATIJALAR</b> .....	35
3.1. O'zbekiston qishloq xo'jaligida klaster tiziminin joriy etilishi va uning afzalliklari hamda tahlili .....	35
3.2. O'zbekistonda mis sanoatida klasterlar tizimini joriy etilishi va uning tahlili hamda xorij tajribalari .....	43
3.3. O'zbekistonda to'qimachilik sanoatini rivojlantirishning klaster strategiyasini shakllantirish yo'llari .....	54
3.4. Tahlillardan olingan natijalar sharhi .....	58
<b>XULOSA</b> .....	61
Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi .....	61
Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari .....	67
Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar .....	68
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI</b> .....	69

## KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni jadallashtirishga qaratilgan klaster tizimi amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, mis va gaz-kimyoo sanoatlari kabi, qishloq xo'jaligining oziq-ovqat, meva-sabzavot, baliqchilik, chorvachilik tarmoqlarida klaster va kooperatsiya tizimini rivojlantirish bo'yicha katta imkoniyat va resurslar ishga solinmoqda.

Jumladan, respublika agrar soha va sanoatda ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi innovatsion hamkorlikni ilg'or xorijiy tajriba asosida samarali tashkil etish, agrar soha va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish hamda ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga to'g'ridan to'g'ri tatbiq qilish orqali sohalarning eksport salohiyatini oshirish, shu bilan birga, iqtisodiyotni yuqori malakali kadrlar, jumladan, ilmiy kadrlar bilan ta'minlash maqsadida tarmoqlarda klaster tizimi tashkil etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni<sup>1</sup> bilan tasdiqlangan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning 29-maqjadi "Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish" deb belgilangan.

Shu boizdan etakchi sohalarda ilmiy klaster faoliyatini tashkil etish va boshqarish, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish, ilmiy-tadqiqot natijalarini respublika iqtisodiyotiga tatbiq etish, tarmoqlarni texnologik transformatsiyalash va rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

### **Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi**

So'nggi yillarda respublika yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishi va klasterlarni tashkil etish va moliyalashtirishni tartibga solish hamda

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni